- a) asar yozilgan shaklda ijro etib va qismlarni aniq ajratish bilish;
- b) asarning dinamik belgilarni aniq ko‘rsatish va tempda kompozitor ko‘rsatgan agogik joylarini to‘la ko‘rsatib, dirijorlik ijro etish;
- v) texnik malakalarni takomillashtirish.

2. Opera xorini ijro etish:

- a) mazmuniga qarab g‘oyaviy – badiiy mazmuniga yetib borish.
- b) dirijorlik ishoralarda asarga mansub bo‘lgan harakatlarni ko‘rsatish.
- v) texnik malakalarni chuqurlashtirish;
- g) temp, usul, dinamik belgilarni aniq ko‘rsatish.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. N.Qoziyev. Xor dirijorligi xrestomatiyasi. III-qism, T.1976, “O‘qituvchi” nashriyoti.
2. “O‘zbekiston mening Vatanim” – qo‘shiqlar to‘plami T.1996-2006

9- mashg‘ulot. Diplom dasturi ustida ishni mustahkamlash. (3 soat).

Reja: 1. Akapella asarida badiiy ifodaga ega bo‘lib g‘oyaviy – badiiy mazmunining ko‘rsata bilish.

2. Jo‘rli ovozli asarda ham mazmunini, so‘z matnlarni musiqa bilan aniq ijro yetib, ko‘rsata bilish.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. N.Qoziyev. Xor dirijorligi xrestomatiyasi. IY qism, T.1976, «O‘qituvchi» nashriyoti.

2. “O‘zbekiston mening Vatanim” – qo‘shiqlar to‘plami T.1996-2006

10- mashg‘ulot. Diplom dasturini «Davlat attestatsiyasi”ga tayyorlash (3 soat).

Reja: 1. Akapella asarida olingan dirijorlik bilimlarni yuqori darajada ko‘rsatish.

2. Jo‘rli ovozni asarni ham texnik malakalar bilan dirijorlik qilib, asarni baland, emotsional darajasida ko‘rsata bilish.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. N.Qoziyev. Xor dirijorligi xrestomatiyasi. IY qism,T.1976, «O‘qituvchi» nashriyoti.

2. “O‘zbekiston mening Vatanim” – qo‘shiqlar to‘plami T.1996-2006

4 - KURS UCHUN TEXNOLOGIK XARITA

Fan: Dirijorlik **Auditoriya:** 13

4-kurs

Mavzu: 3 kursda olingan malakalarni chuqurlashtirish va mustahkamlash, 4 kurs dastur talablarni diqqatiga olib asar dasturini tanlash va ustida ishlash va yirik shaklda xor sahnalardan asarlar bilan ishlash va dirijorlik diplom ishi ustida ishlash

Kalit so‘zlar: Auftakt. Dirijorlik nuqtasi. Fermata. Temp ko‘rsatmalari. Ritenuto. Dimenuyendo. Legato. Nonlegato. Tempo marshe. Aralash o‘lchovlar. Polifoniya. Imitatsiya. Kanon. Podgolosochnaya polifoniya. Yirik forma. Kantata. Oratoriya. Opera. Xor sahnasi.

Soatlar soni: 58 soat

O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi

Metod: nazar va amal ko‘rsatmalar

SHakl: Yakka

Vositalar (texnik va didaktik): tarqatma material

Nazorat: Og‘zaki nazorat, o‘z-o‘zini nazorat qilish, savol-javob va ko‘rsatib berish

Baholash: Rag‘batlantirish

Yakka mashg‘ulotlar uchun ko‘rsatmalar.

O‘qitishni quyidagi printsiplarga asosan tuzish zarur:

Faqat bilishgina muhim emas, balki udallash ham zarur. Bunday muammolarni yo‘lga qo‘yish nazariya va amaliyotning o‘zaro bog‘liqligiga doir savollarga yangicha yondoshishni talab qiladi.

Amaliy mashg‘ulotlar yaxlit tarzda ko‘rib chiqilmog‘i kerak. Bunda quyidagi aspektlar asos hisoblanadi:

a) kurs ko‘lami;

- b)uning yoʻnalishi;
- v)tanlangan kasbiga va oʻqishga qiziqish;
- g)kasbiy mustaqillik;
- d)ijodiy intilish;
- e) fanlararo aloqa.

Dirijyorlik darslarida butun oʻqitish jarayonini amaliy mashgʻulotlarni yuqori malakalari va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan holda berishga qaratishi muhimdir. Aynan mana shunda oʻqitish sifati va samaradorligini oshirishning ulkan rezervlariga erishish mumkin.

Mashgʻulot olib boruvchi oʻituvchilarning asosiy eʼtibori shu muammoni yechishga qaratilmogʻi zarur. Talabalar olgan bilim va koʻnikmalarini mustahkamlashning koʻproq ratsional usullarini, zamonaviy metodlarini axtarish, shu biln bir vaqtning oʻzida olingan umumiy bilim va koʻnikmalar hamda musiqa madaniyati tarbiyasi talabalar dunyoqarashini kengaytiradi.

Mustaqil talim uchun tavsiya etiladigan mashgʻulotlar **Mustaqil taʼlim mazmuni**

Mustaqil taʼlim mashgʻulotlari quyidagi maqsadlarga xizmat qilishini lozim “Dirijorlik” fani boʻyicha oʻzgashtirilayotgan musiqiy asarlar misolida amaliy topshiriqlar berib borish.

Dirijor tarixi va mashhur dirijor – xormeyster ijodiy faoliyati toʻgʻrisida maʼlumotlarni toʻldirib va boyitib birish.

Professional xor jamoalarning konsert dasturlarni va teatrlarda kuyllgan musiqa spektakllarga borib eshitish.

Mustaqil ishlar qoʻyidagi boʻlimlardan iborat boʻladi:

1. Oʻtgan darslarda uyga berilgan vazifalarni tayyorlashga tayyorgarlik koʻrish va tayyorlash.
2. Kollokvium topshirish paytida qoʻyiladigan talablar boʻyicha ogzaki materiallarga tayyorgarlik.
3. Dirijorlikning manual texnikasiga oid boʻlgan ishora shtrix va auftaktlar ustida ish olib borish.

Mustaqil ishlar mazmuni:

1. Har dirijorlik qilayotgan asarning haqida maʼlumot toʻplash: kompozitor, shoir haqida ijodiyot yoʻllari, asarning mazmuni bilan tanishish.
2. Asarning haqida musiqa – nazariy tahlil qilish.
3. Asarning haqida vokal – xor tahlil qilish.
4. Xor partituralarni fortepianoda chalib, xorning ovoz ijrosiga mos keltirish.
5. Asarlada xor partiturasida har bir ovozni ijro etish vokal uslublarni tahlil qilib, yaxshi ijro etish.
6. Dirijorlik qilayotgan asarlarda har xil texnik malakalarni oshirish ustida mashqlar qilish.
7. Dirijorlik ishora, auftaktlar, temp, dinamik uslublari ustida mashqlar qilish.
8. 5/8, 5/4, 6/4, 6/8, 7/8, 7/4, 9/8, 9/4, 12/4,12/8 va boshqa dirijorlik ulchovlar ustida ishlash, ushbu oʻlchovlarda ichki hissalar pulsini aniqlab, asarga mansub boʻlgan usul yoʻllarni topib toʻgʻri koʻrsatish.

9. Har turli dinamik, temp o'zgarishlar (agogika) ko'rsatish dirijorlik uslublari ustida mashq qilish

10. Mashhur o'zbek – xormeysterlar ko'rsatgan ijodi faoliyatlari haqida ma'lumot to'plash: B.Umudjonov – Milliy xor haqida va A.Hamidov rahbarligida "O'zbek xor kapellasi" haqida.

11. O'zbek zamonaviy estrada vokal – guruhlar haqida ma'lumot to'plash.

12. O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi qoshidagi «Bulbulcha» bolalar xori va uning badiiy rahbari va bosh dirijori Sh.Yormatov haqida ma'lumot to'plash.

“Dirijorlik” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezonlari.

“Dirijorlik” fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy hamda yakuniy nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** - talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda amaliy ijro uy vazifalarining bajarilishini nazorat qilish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

- **yakuniy nazorat (YAN)** - semestr yakunida muayyan fan bo'yicha amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan o'rganilgan musiqiy asarlar bo'yicha konsert dasturini namoyish qilish orqali baholanadi.

JN o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **JN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **JN** qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YAN** ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YAN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YAN** qayta o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

“Ansaml sinfi” fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi: Y.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.ga taqsimlanadi.

Ball	Baho	Talabalarning bilim darajasi
86-100	A'lo	Xalq cholg'ulari to'g'risida aniq tasavvur va bilimga ega bo'lish, Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, ijro etish. Tasavvurga ega bo'lish.
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, ijro eta bilish. Tasavvurga ega bo'lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, ijro eta bilish Tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik. Ijro qila olmaslik.

Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabani saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

$$\text{Talabani fan bo'yicha reytingi quyidagicha anikdanadi: } K = \frac{V \cdot O'}{100}$$

bu yerda: V- semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda); O' -fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

- Joriy **JN** turlari bo'yicha 55 ball va undan yuqori ballni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

- Talabani semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

- **JN** va **YAN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YAN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

- **JN** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy nazorat uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

- Talabani semestrda **JN** turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzidor deb hisoblanadi.

- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

- Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

- Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalar JN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	JN ballari				
		Maks.	1-JN	2-JN	3-JN	4-JN
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi.	17	0-4	0-4	0-4	0-5
2	Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, ijodiy jarayonlardagi mahorati.	18	0-4	0-4	0-5	0-5
3	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi.	17	0-4	0-5	0-4	0-4
4	Ijodiy jarayondagi repertuarlarning ijro sifati. Tashkilotchiligi.	18	0-5	0-5	0-4	0-4
Jami JN ballari		70	17	18	17	18

YAN konsert dasturi ijrosi natijasiga qarab maksimal 30 ball orqali baholanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

Darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati:

1. N.Qoziyev. Xor dirijorligi xrestomatiyasi. 1-qism, T.1976, «O'qituvchi» nashriyoti.
2. "O'zbekiston mening Vatanim" – qo'shiqlar to'plami T.1996-2006
3. Shukurov J. Dirijyorlik. T., 2006
4. Bezborodova L.A. «Dirijirovaniye» M. «Prosvesheniye», 1990.
5. Jabbarov A.X. «O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari». Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2005
11. Shamaxmudova B.V. Xor lug'ati. O'quv qo'llanma. T., 2009 «Musika» nashriyoti

XORIJIY MANBALAR

1. Chesnokov P.G. «Xor i upravleniye im». M. «Muzgiz», 1961.
2. Yegorov L. Teoriya i praktika raboti s xorom. L.1965
3. Kazachkov S. Dirijorskiy apparat i ego postanovka. M.1967
4. Grigorev L., Platek Ya. «Sovremenniye dirijeri». M. izd. «Kompozitor», 1969.
5. Popov S.V. «Etyudi po xorovomu dirijirovaniyu». M. «MGIK», 1974.
6. Olxov K.A. «Voprosi teorii dirijyorskoy texniki i obucheniya xorovix dirijerov». L. «Muzika», 1979.
7. Romanovskiy N.V. «Xorovoy slovar». M. «Muzika», 1980.

8. Kolessa N.F. «Osnovi texniki dirijirovaniya». Kiyev. «Muzichna Ukraina», 1981.
9. Sokolov VI. «Rabota s xorom» M. «Muzika», 1983.
10. Olxov K.A «Teoreticheskiye osnovi dirijerskoy texniki». L. «Muzika», 1984.

Qo'shimcha

1. N.Qoziyev. Dirijorlik xrestomatiyasi. 1-qism, T.1976
2. N.Qoziyev. Dirijorlik xrestomatiyasi. 2 -qism, T.1976
3. N.Qoziyev. Dirijorlik xrestomatiyasi. 3-qism, T. 1977
4. N.Qoziyev. Dirijorlik xrestomatiyasi. 4 qism, T. 1986

Yakka mashg'ulotlar uchun ko'rsatmalar.

O'qitishni quyidagi printsiplarga asosan tuzish zarur:

Faqat bilishgina muhim emas, balki udallash ham zarur. Bunday muammolarni yo'lga qo'yish nazariya va amaliyotning o'zaro bog'liqligiga doir savollarga yangicha yondoshishni talab qiladi.

Amaliy mashg'ulotlar yaxlit tarzda ko'rib chiqilmog'i kerak. Bunda quyidagi aspektlar asos hisoblanadi:

- a) kurs ko'lami;
- b) uning yo'nalishi;
- v) tanlangan kasbiga va o'qishga qiziqish;
- g) kasbiy mustaqillik;
- d) ijodiy intilish;
- e) fanlararo aloqa.

Dirijorlik darslarida butun o'qitish jarayonini amaliy mashg'ulotlarni yuqori malakalari va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan holda berishga qaratishi muhimdir. Aynan mana shunda o'qitish sifati va samaradorligini oshirishning ulkan rezervlariga erishish mumkin.

Mashg'ulot olib boruvchi o'ituvchilarning asosiy e'tibori shu muammoni yechishga qaratilmog'i zarur. Talabalar olgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashning ko'proq ratsional usullarini, zamonaviy metodlarini axtarish, shu biln bir vaqtning o'zida olingan umumiy bilim va ko'nikmalar hamda musiqa madaniyati tarbiyasi talabalar dunyoqarashini kengaytiradi.

Mustaqil talim uchun tavsiya etiladigan mashg'ulotlar Mustaqil ta'lim mazmuni

Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari quyidagi maqsadlarga xizmat qilishini lozim "Dirijorlik" fani bo'yicha o'zgashtirilayotgan musiqiy asarlar misolida amaliy topshiriqlar berib borish.

Dirijor tarixi va mashhur dirijor – xormeyster ijodiy faoliyati to'g'risida ma'lumotlarni to'ldirib va boyitib birish.

Professional xor jamoalarning konsert dasturlarni va teatrlarda kuyllgan musiqa spektakllarga borib eshitish.

Mustaqil ishlar qo'yidagi bo'limlardan iborat bo'ladi:

1. O'tgan darslarda uyga berilgan vazifalarni tayyorlashga tayyorgarlik ko'rish va tayyorlash.

2. Kollokvium topshirish paytida qo'yiladigan talablar bo'yicha ogzaki materiallarga tayergarlik.

3. Dirijorlikning manual texnikasiga oid bo'lgan ishora shtrix va auftaktlar ustida ish olib borish.

Mustaqil ishlar mazmuni:

1. Har dirijorlik qilayotgan asarning haqida ma'lumot to'plash: kompozitor, shoir haqida ijodiyot yo'llari, asarning mazmuni bilan tanishish.

2. Asarning haqida musiqa – nazariy tahlil qilish.

3. Asarning haqida vokal – xor tahlil qilish.

4. Xor partituralarni fortepianoda chalib, xorning ovoz ijrosiga mos keltirish.

5. Asarlada xor partiturasida har bir ovozni ijro etish vokal uslublarni tahlil qilib, yaxshi ijro etish.

6. Dirijorlik qilayotgan asarlarda har xil texnik malakalarni oshirish ustida mashqlar qilish.

7. Dirijorlik ishora, auftaktlar, temp, dinamik uslublari ustida mashqlar qilish.

8. 5/8, 5/4, 6/4, 6/8, 7/8, 7/4, 9/8, 9/4, 12/4, 12/8 va boshqa dirijorlik ulchovlar ustida ishlash, ushbu o'lchovlarda ichki hissalar pulsini aniqlab, asarga mansub bo'lgan usul yo'llarni topib to'g'ri ko'rsatish.

9. Har turli dinamik, temp o'zgarishlar (agogika) ko'rsatish dirijorlik uslublari ustida mashq qilish

10. Mashhur o'zbek – xormeysterlar ko'rsatgan ijodi faoliyatlari haqida ma'lumot to'plash: B.Umudjonov – Milliy xor haqida va A.Hamidov rahbarligida "O'zbek xor kapellasi" haqida.

11. O'zbek zamonaviy estrada vokal – guruhlar haqida ma'lumot to'plash.

12. O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi qoshidagi «Bulbulcha» bolalar xori va uning badiiy rahbari va bosh dirijori Sh.Yormatov haqida ma'lumot to'plash.

3. Ta'lim texnologiyasi

Yakka tartibdagi mashg'ulotlarning namunaviy texnologik xaritasi
1-akademik soat (45 daqiqa)

Fakultet, kafedra, o'kitish boskichi	O'quv predmeti	O'quv mashg'uloti mavzusining o'quv dasturidagi o'rni
Xalq ijodiyoti VJR bo'limi IV kurs	Dirijerlik	2 soat
Sana: _____	Yakka dars – VJR	O'qituvchi: Vasilchenko O.A.
Mavzuning nomi	Murakkb dirijerlik sxemalarini o'rganish	
Mashg'ulot rejasi	1. 9/4 va 9/8 o'lchovlarini vazmin sur'atda "to'qqiz"ga hamda tez mo'tadil sur'atda (uchga) (3+3+3) asarlarni dirijyorlik qilish. 2. 12/4 va 12/8 o'lchovlarni vazmin sur'atda "o'n ikki"ga hamda tez va mo'tadil sur'atda « to'rt"ga (3+3+3+3) asarni dirijyorlik qilish. 3. 7/4 yoki 7/8 o'lchovlarni vazmin sur'atda, « yettiga" hamda tez va mo'tadil sur'atda "uch"ga (2+2+3) va (3+2+2) va "ikki"ga (3+4 va 4+3) asarni dirijyorlik qilish.	
Asosiy atama va tushunchalar	nafas, ansambl, tovush balandligi, "ton berish", ovoz sozlash mashqlari diktsiya, akapella, soz, temp, syuita, kantata, oratoriya, opera	
Adabiyotlar ro'yxati	1. Asafev B. «O xorovom iskusstve» (sbornik statey) L. , «Музыка», 1980 2. Vinogradov K. «Rabota nad diktsiyey v xore». M. , «Музыка», 1967 3. Dmitriyevskiy V. «Xorovedeniye i upravleniye xorum». Izd. 2 M. , «Музыка», 1964. 4. Romanovskiy N. «Xorovoy slovar». Izd. 3 L. , «Музыка», 1980 5. Chesnokov P. «Xor i upravleniy im», Izd 3 «Музыка», 1961 6. Sharafiyeva N. «Xor sinfi». Musiqa nashriyoti. T. 2005.	
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Murakkab usulga ega bo'lgan asarlarni dirijyorlik qilish. Bir murakkab usuldan ikkinchi murakkab usulga utish. Murakkab usullarni his kilish O'rganilayotgan murakkab usulga ega bo'lgan asarni quyilab va dirijerlik kilish.	

O'qituvchi vazifa	oldidagi	Talabalarga fan mazmunini o'zlashtirish jarayonida quyidagilarni bilishi va ulardan foydalana olishini o'rganish: 1.Murakkab usulli asarni chalib kursatib berish. 2.Kuylab berish 3.Asarni dirijerlik qilib qo'rsata bilish.
O'quv natijalari	faoliyatining	Talaba oddiy va murakkab usulli asarlarni taxlil kiyla bilishi. Asarni dirijerlik qilib va kuylab berishi
O'qitish metodlari va texnikalari		Amaliy, interaktiv, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash.
O'qitish vositalari		Aloxida asarlar notalari, slaydlar, xrestomatiyalar, DVD yozuvlari.
O'qitish sharoiti		Maxsus moslashtirilgan auditoriya


Murakkab dirijerlik sxemalari mavzusidagi amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

O'kitish bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
I. Tayyorlov boskichi (10 daqiqa)	1. Xor asarlarini nomi, kompozitori, musiqiy obrazi haqida kirish so'zi. 2.Asarlarning ijro rejasi bilan tanishtiradi. 3.Baholash mezonlarini va adabiyotlar ro'yxatini e'lon qiladi. 4.Xar bir talabaga nota material tarqatadi.	Eshitadilar. Eshitadilar, yozadilar, ma'lum ketma-ketlikda joylashtiradilar.
II.Asosiy bosqich (60 daqiqa)	1 ovoz sozlash yordamida talabalarni kuylashini faolashtirish 2.Fikrlarni umumlashtirib, Davlat attestatsiyasiga tanlangan asarlar ustida ishlar olib boriladi 3.Tarqatilgan nota materiallarga diqqatlarini jalb qiladi. 4. Bajarilgan ishlarni qisqacha tahlil qiladi. 5. Olingan bilimlarni yanada mustahkamlash maqsadida talabalarni kichik guruhlariga bo'ladi. Har bir guruhlarda ovoz partiyalari aloxida mukammal o'rganiladi. 6 Guruhlar bajargan ishlarni tahlil qilish va baholash.	Fikrlarini bildiradilar Berilgan vazifani bajaradilar. Eshitadilar, zarur joylarini yozib oladilar.


		Eshitadilar
III Yakuniy boskich (10 daqiqa)	1. Mavzuni umumlashtiradi, xulosalar kiladi. 2. Guruhlar va ayrim talabalar bahosini e'lon kiladi. 3. Uyga vazifa beradi.	Eshitadilar, yozib oladilar.

4. Mashqlar


Birinchi kursdan boshlab dirijyorlik sinfi bo'yicha talaba oddiy ko'l xarakatlari sxemasi bilan tanishadi va o'zdashtiradi. Keyinchalik, 2 kursdan talaba murakkab va murakkab- aralash sxemalarni asarlar orkali o'zlashtiradi.




1 rasm Trexdolnyy razmer




2 rasm Chetyrexdolnyy razmer




3 rasm Pyatidolnyy razmer




4 rasm Shestidolnyy razmer




5 rasm Semidolnnyy razmer



6 rasm Vosmidolnnyy razmer



7 rasm Devyatidolnnyy razmer



8 rasm Odinnadtsatidolnnyy razmer

5. Testlar

1. Vokal-xor jamoasining vazifalari:

- a) yoshlarni qo'shiq aytish va cholg'u chalishga o'rgatish
- b) raqsga tushishga o'rgatish
- * s) yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etish va fikr uyg'otish, taraqqiyot g'oyalariga chorlash
- d) to'g'ri javob yo'q

2. Vokal-xor jamoasi rahbarining vazifasi nimalardan iborat?

- a) rahbar dono tarbiyachi, pedagog bo'lishi lozim
- b) rahbar nazariy bilim ega bo'lishi kerak
- s) vokal uslubiyoti jihatidagi puxta malakaga ega bo'lishi kerak
- * d) hamma javoblar to'g'ri

3. Vokal-xor jamoasi rahbari nimalarga ega bo'lishi lozim?

- * a) dono ustoz, qatnashchilarning qobiliyatlaridan qat'iy nazar bir xil munosabatda bo'lishi
- b) manmanlikka berilishi, ishtirokchilarni bir tomonlama tanqid qilishi
- s) g'amxo'r bo'lishi
- d) obro' e'tiborga ega bo'lishi

4. Xor jamoasini qayerlarda tuzish mumkin?

- a) o'quv yurtlari, maktab, litsey, kollej, cho'milish havzalarida
- * b) o'quv yurtlari, maktab, litsey, kollej, madaniyat muassasalari, harbiy qismlar, ishlab chiqarish korxonalarida
- s) madaniyat muassasalari, sport o'yingohlarida d) to'g'ri javob yo'q

5. Xor jamoasini tashkil etishda qaysi jihatlarga e'tiborni qaratish kerak?

- a) targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish
- b) o'z-o'zini boshqarish tashkilotlarini tuzish
- * s) madaniy ehtiyojlari, mahalliy qo'shiqchilik an'analari, badiiy ijro yo'llari, atrof muhitni aniqlash
- d) xonandalar ovozini aniqlab xor guruhlarini to'ldirish

6. Xorni tashkil etishning birinchi davrida nimalarni amalga oshirish mumkin?

- a) madaniy ehtiyojlari, mahalliy qo'shiqchilik an'analari, badiiy ijro yo'llari, atrof muhitni aniqlash
- b) targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish
- s) xonandalar ovozini aniqlab xor guruhlarini to'ldirish
- * d) hamma javoblar to'g'ri

7. Xorni tashkil etishning ikkinchi davrida nimalarni amalga oshirish mumkin?

- * a) xor guruhlarini to'ldirish ishlarini tugallash va faoliyat boshlash
- b) o'z-o'zini boshqarish tashkilotlarini tuzish

s) xonandalarni xorga qaytadan jalb etish d) xonandalar ovozi ustida ishlash

8. Asarni o'zlashtirishda rahbar nimalarga ahamiyat berishi zarur?

a) asar partiyalarini musiqiy nazariy tahlil qilish

b) so'zlarning aniq va to'g'ri yozilganligiga e'tibor berish s) asarni dinamik belgilariga ahamiyat berishi

* d) asarni chuqur o'rganishi, tahlil qilishi, idrok eta olishi

9. Ilk bor tashkil etilgan xor jamoasiga qanday asar o'rgatish tavsiya etiladi?

a) opera va kontantlardan parcha

b) ko'p qismli xor asari

* s) band va naqorotdan iborat asar d) ko'p ovozli xor asari

10. Dastur tanlashning muhim shartlarini to'g'ri ko'rsating.

a) xonandalarning ijrochilic mahoratini yuksaltirish, badiiy didini o'stirish

* b) asarning g'oyaviyligi va badiiy yuksakligi, tanlangan asarning xor jamoasiga mos kelishi, oddiydan murakkabga o'tib borishi, asarning mavzu jihatdan rang-barang bo'lishi, tanlangan asarning kontsertda ijro qilinishi

s) turli janrga mansubligini e'tiborga olish

d) ijro sur'ati, xarakteri va kontsert dasturiga kiritilishi

11. Asarni jo'rli kuylashning afzallik tomonlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan.

a) ruhlantiradi, mehr muhabbatga chorlaydi

b) badiiy didini oshiradi, insonparvarlikka undaydi s) xonandalar qiziqishlarini oshiradi

* d) asarni ritmik tomondan to'g'ri talaffuz qiladi va toza kuylash imkonini beradi

12. A'kapella usulida kuylash xor jamoasiga qanday yordam beradi?

a) ritmik jihatdan o'stiradi

b) xor sozini yaxshilaydi, xonandalarni garmonik eshitish va tafakkur etish qobiliyatini o' stiradi

s) dinamik jihatlarini boyitadi

* d)hammajavoblarto'g'ri

13. Kuylashdagi to'g'ri nafas olish yo'lini ko'rsating.

* a) qorin bo'shlig'i -diafragmaga nafas olish

b) yelka kengayuvchi nafas olish

s) ko'krak bilan nafas olish

d) ko'krak aralash qorindan nafas olish

14. Aniq bir ritmda va ma'lum bir vaqt oralig'ida almashinadigan nafas qanday nafas deyiladi?

a) o'ynaganda ishlatiladigan nafas

b) gapirganda ishlatiladigan nafas

s) kuylash vaqtda ishlatiladigan nafas

* d) fiziologik nafas

15. Tez tepmdagi asarlarda to'g'ri nafas olish qanday sodir bo'ladi?

a) sekin va shoshilmay

* b) tez va qisqa vaqt oralig'ida

s) chuqur va aniq \

d) qattiq va aniq bo'lmagani

16. Sekin tepmdagi asarlarda to'g'ri nafas olish qanday sodir bo'ladi?

a) tez va qisqa vaqt oralig'ida

b) qisqa va cho'zib

* s) sekin, shoshilmay, chuqur va aniq

d) qattiq va aniq

17. Qattiq tovush hosil qilish nyuanslari:

* a) forte, fortissimo, sforsando

b) piano, pianissimo, metstso forte

s) metstso forte, metstso piano, forte

d) forte, piano, metstso forte

18. YUmshoq tovush hosil qilish nyuanslari:

a) metstso forte, metstso piano, forte

b) forte, piano, metstso forte

s) krijendo, diminuyendo, jnetstso piano

* d) metstso piano, piano, pianissimo

19. Kichik yoshdagi bolalar xor jamoasi nechanchi sinf o'quvchilaridan tashkil topadi?

* a) umumta'lim maktabining 2, 3 va 4-sinf o'quvchilaridan b) 10-14 yoshdagi bolalardan

s) umumta'lim maktabining 7, 8, 9-sinf o'quvchilaridan d) maktabgacha muassasa tarbiyalanuvchilaridan

20. Kichik yoshdagi bolalar xor jamoasi uchun qanday asarlar tanlab olinadi?

a) ko'p qismli xor asari

* b) cholg'u asbobi jo'r bo'ladigan kichik hajmdagi va diapozoni uncha katta bo'lmagan asar

s) a'kapella usulidagi asar I

d) ko'p ovozli xor asari

21. Kichik yoshdagi bolalar ovoz diapozoni qaysi javob to'g'ri ko'rsatilgan.

a) kichik oktava Mi va ikkinchi oktava Do

b) birinchi oktava Re va ikkinchi oktava Sol

s) kichik oktava Si va birinphi oktava Si

* d) birinchi oktava Do, Re! va ikkinchi oktava Do, Re

22. Bolalarni xorga jalb qilishning birinchi bosqichida nimalarga ahamiyat beriladi?

- * a) musiqaviy eshitish va uni aniq ifoda etish qobiliyati, musiqiy xotirasi, ritm his etishiga
- b) diapozoniga
- s) ovoz xususiyatiga
- d) yoshiga

23. O'zining yengilligi va tovlanib turishi, jarangdorligi va nozikligi bilan:

- a) tenor va basga bo'linadi
- * b) diskant-soprano va altga bo'linadi
- s) soprano va altga bo'linadi
- d) tenor va sopranoga bo'linadi

24. Diskant-soprano bolalar ovozining diapozoni:

- a) kichik oktava Mi va ikkinchi oktava Do
- b) birinchi oktava Re va ikkinchi oktava Sol
- s) kichik oktava Si va birinchi oktava Si
- * d) birinchi oktava Re va ikkinchi oktava Re

25. Bolalarni xorga jalb qilishning ikkinchi bosqichida nimalarga ahamiyat beriladi?

- a) musiqaviy eshitish va uni aniq ifoda etish qobiliyati, musiqiy xotirasi, ritm his etishiga
- * b) yakka tartibda ovoz xususiyatlari bilan tanishib, ularni xor guruhiga bo'ladi
- s) ovoz xususiyatiga
- d) yoshiga

!

26. Primar tovush deb:

- a) aralash registrdagi tovushlarga aytiladi
- b) yuqori registrdagi tovushlarga aytiladi
- * s) ovozning o'ziga xos tomonlarini ochib beruvchi bir yoki bir necha tovushlarning yengil, tabiiy va yaxshi jaranglashiga aytiladi
- d) pastki registrdagi tovushlarga aytiladi

27. Kuylash jarayonida qiyinchilik tug'diradigan unli xarflar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) A, O, YA, YO, O'
- b) O, YA, I, e, YO
- s) A, O, YA, I
- * d) I, YE, e, U, YU

28. Oson kuylanadigan unli tovushlar:

- * a) A, YA, O, YO, O'
- b) O, YA, I, E, YO

- s) A, O, YA, I
- d) I, U, e, YE, YU

29. Melodik soz deganda nima tushunasiz?

- a) uch tovushliklarning to'g'ri kuylanishi
- b) akkordlarning to'g'ri kuylanishi
- * s) intervallar, major va minor bosqichlarini sof kuylanishi
- d) to'g'ri javob yo'q

30. Garmonik soz deganda nimani tushunasiz?

- * a) uch tovushlik va akkordlarning to'g'ri kuylanishi
- b) intervallarning to'g'ri kuylanishi
- s) major va minor gammalarining kuylanishi d) hammasi to'g'ri

31. Qaysi intervallarda bir tomonlama kengayishga moyillik bilan kuylanadi?

- a) barcha katta intervallar
- b) barcha kichik intervallar
- * s) a va d javoblar to'g'ri
- d) katta tertsiya, katta seksta, katta septima

32. Qaysi intervallarda bir tomonlama torayishga moyillik bilan kuylanadi?

- a) barcha kichik intervallar
- b) kichik tertsiya, kichik sgksta, kichik septima
- s) barcha intervallar
- * d) a vav javoblar to'g'ri

33. Qaysi intevallar mustahkam va barqaror kuylanadi?

- * a) prima, kvarta, kvinta, oktava b) barcha kichik intervallar
- s) barcha katta intervallar
- d) barcha orttirilgan va kamaytirilgan intervallar

34. Ansambl so'zi qaysi tildan olingan?

- * a) frantsuz
- b) italyan
- s) nemis
- d) rus

35. Ansambl so'zining ma'nosi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan.

- a) musiqiy ijro usulining birgalikda kuylash
- b) dinamik nyuanslarni birgalikda kuylash
- * s) birgalikda, uy?unlik bilan kuylash
- d) dirijyor bilan birga kuylash

36. Qo'shiq o'rgatish jarsiyonining asosiy qismlarini ko'rsating.

- * a) asarni eshittirish, so':

va kuyini o'rgatish hamda mustahkamlash, badiiy
ifodali qilib kuylashga o'rgatish
b) nota yordamida kuylashga o'rgatish
s) cholg'u jo'rliqi bilan kuylashga o'rgatish
d) to'g'ri javobyo'q

37. Bolalarga qo'shiq aytish qanday yo'llar bilan o'rgatiladi?

* a) hammajavoblar to'g'ri
b) dinamik belgilarini aniqlash
s) nafas olish joylarini belgilash d) jummalargabo'lib o'rgatish

38. Ikki ovozlikda kuylash ko'nikmalarini o'stirishda qanday usuldan foydalanish mumkin?

a) gamma
* b) kanon
s) akkord
d) a va v javoblar to'g'ri xia-u

39. Bolalarga qanday tempdagi asarlarni o'rgatish tavsiya etiladi?

a) shoshilmay ijro qilinadigan asarlar
b) tez tempdagi asarlar s) sekin tempdagi asarlar
* d) o'rtacha, mo'tadil tempdagi asarlar

40. Notalarda qo'shiqning jummalarga bo'linishi qanday belgi bilan ifodalanadi?

a) non liga
b) sttakato
* s) liga
d) fermato

41. Butun, yarimtalik, choraktalik, sakkiztalik, o'n oltitalik - bu so'zlarning ma'nosi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) nota balandligini anglatadi
* b) notalar cho'zimini anglatadi
s) notalar sanog'ini anglatadi
d) v va s to'g'ri javoblar

42. Qo'shiqlarda uchraydigan alteratsiya belgilarining vazifasi nimalardan iborat?

a) diyez - tovushlarni yarim ton miqdorida ko'taradi
b) bemol - tovushlarning yarim ton miqdorida pasaytiradi
s) bekar - alteratsiya belgilarni bekor qiladi
* d) hamma javoblar to'g'ri

43. O'rta yoshdagi bolalar xor jamoasi qatnashchilarining yoshini ko'r sating.

- a) 20-25 yoshdagi bolalar
- b) 14-17 yoshdagi bolalar
- * s) 10-14 yoshdagi bolalar
- d) 7-10 yoshdagi bolalar

44. O'rta yoshdagi bolalar xor jamoasi nechanchi sinf o'quvchilaridan tashkil topadi?

- a) umumta'lim maktabinin², 3 va 4-sinf o'quvchilaridan
- * b) umumta'lim maktabining 5, 6, 7, 8, 9-sinf o'quvchilaridan
- s) akademik litsey va kollej o'quvchilaridan
- d) maktabgacha muassasa tarbiyalanuvchilaridan

45. O'rta yoshdagi bolalar xor jamoasining umumiy diapozoni:

- * a) kichik oktava Sol, Lya notalaridan ikkinchi oktava Fa, Sol notalarigacha
- b) kichik oktava Do, Re notalaridan ikkinchi oktava Lya, Si notalarigacha
- s) birinchi oktava Fa, Sol notalaridan ikkinchi oktava Do, Re notalarigacha
- d) birinchi oktava Do notasidan uchinchi oktava Do notasigacha

46. O'rta yoshdagi bolalar xor jamoasining diskant-soprano ovozi diapozoni:

- a) kichik oktava Mi, Fa - birinchi oktava Mi, Fa notalari
- b) kichik oktava Lya, Si - uchinchi oktava Do, Re notalari
- s) katta oktava Do, Re - kichik oktava Lya, Si notalari
- * d) birinchi oktava Re, Mi - ikkinchi oktava Fa, Sol notalari

47. O'rta yoshdagi bolalar xor jamoasining alt ovozi diapozoni:

- a) kichik oktava Mi, Fa - birinchi oktava Mi, Fa notalari
- b) kichik oktava Lya, Si - ijichinchi oktava Do, Re notalari
- * s) kichik oktava Sol, Lya - ikkinchi oktava Re, Mi notalari
- d) birinchi oktava Re, Mi - ikkinchi oktava Fa, Sol notalari

48. O'rta yoshdagi bolalar xor jamoasining son jihatidan tarkibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- * a) 30-40 nafar
- b) 70-80 nafar
- s) 20-25 nafar
- d) 50-60 nafar

49. O'rta yoshdagi bolalar xor jamoasini sahnada to'g'ri joylashtirish qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) diskant- soprano, tenor
- * b) diskant-soprano, alt yoki alt, diskant-soprano
- s) alt, tenor, bas
- d) diskant-soprano, bas

50. jO'smirlar xor jamoasi nechanchi sinf o'quvchilaridan tashkil topadi?

- a) umumta'lim maktabinin², 3 va 4-sinf o'quvchilaridan

- b) limumta'lim maktabining 5, 6, 7, 8, 9-sinf o'quvchilaridan
- * 'sf akademik litsey va kollej o'quvchilaridan
- d) maktabgacha muassasa tarbiyalanuvchilaridan

51. O'smirlar xor jamoasi qatnashchilarining yoshini ko'rsating.

- a) 20-25 yoshdagi bolalar
- b) 7-10 yoshdagi bolalar
- s) 10-14 yoshdagi bolalar
- * d) 14-17 yoshdagi bolalar

52. Mutatsiya davri qaysi yoshlarni o'z ichiga oladi?

- * a) 13-18 yoshlarni
- b) 7-10 yoshlarni t
- s) 20-25 yoshlarni]
- d) 10-12 yoshlarni

53. O'smirlar xor jamoasining umumiy diapozoni:

- a) katta oktava Do - ikkinchi oktava Do notalari
- * b) kichik oktava Do, Re 4- ikkinchi oktava Sol, Lya notalari
- s) birinchi oktava Do - ikkinchi oktava Fa notalari
- d) birinchi oktava Lya - ikkinchi oktava Lya notalari

54. O'smirlar xor jamoasining soprano ovozining diapozoni:

- * a) birinchi oktava Do, Re - ikkinchi oktava Sol, Lya notalari
- b) kichik oktava Sol, Lya - ikkinchi oktava Re, Mi notalari s) birinchi oktava Fa, Sol - ikkinchi oktava Re, Mi notalari d) ikkinchi oktava Do, Re - ikkinchi oktava Sol, Lya notalari

55. O'smirlar xor jamoasining alt ovozining diapozoni:

- a) birinchi oktava Do, Re - ikkinchi oktava Sol, Lya notalari
- * b) kichik oktava Sol, Lya - ikkinchi oktava Re, Mi notalari
- s) birinchi oktava Fa, Sol - ikkinchi oktava Re, Mi notalari
- d) birinchi oktava Do, Re - ikkinchi oktava Sol, Lya notalari

56. O'smirlar xor jamoasining tenor va bas ovozlarining diapozoni:

- a) birinchi oktava Do, Re - j ikkinchi oktava Do, Re notalari
- b) kichik oktava Lya, Si - birinchi oktava Lya, Si notalari
- * s) kichik oktava Do, Re - kichik oktava Lya, Si notalari
- d) katta oktava Do, Re - kibhik oktava Do, Re notalari

57.*iO'smirlar xor jamoasida rahbar erkaklar ovozining qaysi jihatlarini e'tibor berish kerak? i

- a) tekis ovoz chiqarish va aniq talaffuzga
- b) ovozni zo'riqtirmaslik, fonetik sifat buzilishlarini oldini olish
- s) sozning sofligi va tiniqligi va ansamblning uyg'unligiga

* d) barcha javoblar to'g'ri

58. Xonandalar ovozinig buzilishiga olib keladigan sabablar:

- a) xonandalar nafas olish qoidalariga rioya qilmaganlarida
- b) xonandalar tovushlarning baland-pastligini ilg'ab ololmaganda
- s) xonandalarning tovush chiqarish yo'llari xastalanganda va charchagan holatida
- * d) hamma javoblar to'g'ri

59. Sof musiqiy talaffuzga erishishga yordam beradigan usullar:

- a) nip - mayin va ohista to'vushda ijro
- b) yopiq og'iz bilan ijro
- s) "u" unli tovush bilan va jo'rsiz ijro
- * d) a, v, s javoblar to'g'ri |;-

60. Xor jamoalarida keng ishlatiladigan nafas turi:

- * a) zanjirsimon nafas
- b) jummalarga bo'lingan nafas
- s) cho'ziq va shoshilmay olingan nafas
- d) tez va chuqur olingan nafas

61. Xususiy ansambl deganda nimani tushunasiz?

- a) xor guruhlar o'rtasidagi ohangdoshlik
- * b) har bir guruhning mutassiligidir
- s) temp ansambli
- d) tembr ansambli

62. Umumiy ansambl deganda nimani tushunasiz?

- a) temp ansambli j
- b) har bir guruhning mutassiligidir
- * s) xor guruhlar o'rtasidagi ohangdoshlik, ya'ni butun xorning ansambli
- d) tembr ansambli

63. Dinamik ansambl deganda nimani tushunasiz?

- * a) ovozlar sadosining bir xil tus olishi
- b) usulni bir xilda his etish
- s) bir xil tezlikda ijro etish
- d) yakkaxon va xor jamoasining bir xilda ijro etilishi

64. Garmonik ansambl:

- a) asarning bir xil tezlikda ijro etilishi
- b) ovoz tusining bir xilligi
- s) xordagi barcha guruhlarining ohangdoshligi
- * d) akkordlardagi barcha tovushlarning ohangdoshligi

65. Temp ansambli:

- a) akkordlardagi barcha tovushlarning ohangdoshligi
- * b) asarning bir xil tezlikda ijro etilishi

- s) yakkaxon va xor jamoasining bir xilda ijro etilishi
- d) xordagi barcha guruhlarining sadolanishi

66. So'z talaffuzi:

- a) nutq organlarining to'g'ri va aniq ishlatilishi
- b) undosh tovushlarning to'g'ri va aniq talaffuzi
- s) unli tovushlarning to'g'ri va aniq talaffuzi
- * d) hamma javoblar to'g'ri

67. Quyidagi iborani kuylash jarayonida bo'g'inlarga to'g'ri ajratilishi:

- * a) to-pi-be-rsa-ngiz
- b) to-pib-ber-san-giz
- s) to-pip-ber-sa-ngiz
- d) to-pi-ber-sa-ngiz

68. Xonandalarni jamoaga yetaklab keluvchi sabablar nimalardan iborat?

- a) musiqiy, musohaba-muloqot
- b) kontsert-ijrochilik, o'quy-bilim olish
- s) kasbiy-mahorat
- * d) hamma javoblar to'g'ri

69. Musohaba-muloqot qiziqishi qaysi yoshdagi jamoa qatnashchilari uchun xos?

- a) o'rta ma'lumotlilarga
- * b) keksalar va yoshlarga
- s) oliy ma'lumotlilarga
- d) to'g'ri javob yo'q

70. Xonandalarning fe'l-atvorini shartli ravishda qanday toifalarga bo'linadi?

- * a) barcha javoblar to'g'ri
- b) zo'raki, hassos
- s) mulohazakor
- d) ijodiy

71. O'rta yoshdagi bolalarning ovoz xususiyatiga qarab aniqlashda nimalarga e'tibor qaratiladi?

- a) ovozni zo'riqtirmasdan va erkin kuylashiga
- b) unli va undosh tovushlarni o'ng'ay kuylashiga
- s) jamoaga faol qatnashi va to'g'ri kuylashiga
- * d) ovoz diapozoni, ovoztembri, musiqiy xotirasi va musiqani eshitabilishiga

72. O'rta yoshdagi bolalar ovozining yuqori registr tovushlardagi joylashishi:

- a) birinchi oktava Sol ikkinchi oktava Do
- b) birinchi oktava Lya ikkinchi oktava Re
- * s) ikkinchi oktava Re-Sol

d) birinchi oktava Si ikkinchi oktava Re

73. O'rta yoshdagi bolalar ovozining o'rta registr tovushlardagi joylashishi:

- a) kichik oktava Sol birinchi oktava Do
- * b) birinchi oktava Fa ikkinchi oktava Re
- s) birinchi ikkinchi oktava Re ikkinchi oktava Do
- d) birinchi oktava Si ikkinchi oktava Re

74. O'rta yoshdagi bolalar ovozining pastki registr tovushlardagi joylashishi:

- * a) kichik oktava Sol birinchi oktava Mi
- b) kichik oktava Lya birinchi oktava Lya
- s) birinchi oktava Do birinchi oktava Sol
- d) birinchi oktava Si birinchi oktava Lya

75. Jamoa ijrosidagi detonatsiya deb nimaga aytiladi?

- a) noto'g'ri nafas olib kuylash
- b) ovoz pardalarining o'ta taranglashuvi
- s) xor ijrosidagi sozning pasayib yoki ko'tarilib ketishi
- * d) hammajavoblar to'g'ri

76. Orfoyepiya so'zining ma'nosi nima?

- * a) so'zlarning jonli tildagi talaffuzi
- b) so'zlarning qo'shiq aytishdagi talaffuzi
- s) so'zlarning musiqiy talaffuzi
- d) hammajavoblar noto'g'ri

77. Artikulyatsiya apparatiga nimalar kiradi?

- a) qog'iz bo'shlig'i, ovoz pardalari, quloqlar
- * b) lab, til, tanglay, ovoz pardalari, jag'ar, tishlar
- s) ovoz pardalari, quloqlar, qo'llar
- d) lab, til, jag', quloq, og'iz bo'shlig'i, qo'llar

78. Nafas olishning tugallanishi nimaga ishora beradi?

- a) nafasni chiqarishga
- b) nafasni qayta olishga
- * s) qo'shiq aytishning boshlanishiga
- d) qo'shiq aytishning tugallanishiga

79. Jamoaga qo'shiq o'rgatishda nimalarga alohida ahamiyat berish kerak?

- * a) hamma javoblar to'g'ri
- b) asarni eshittirish
- s) asarni o'rgatish
- d) asarni mustahkamlash va badiiy ifodali qilib ijro etish

80. Asarni o'rgatishda nimalarga e'tibor qaratiladi?

- a) jummalarga bo'lish, aniq talaffuzi, kuyini
- b) ritmik qiyinchiliklarni, tovush xususiyatini
- * s) hamma javoblar to'g'ri
- d) to'g'ri nafas olishni

81. Ko'p ovozlikka o'tishda qanday uslub qo'llanilishi mumkin?

- a) polifonik uslubi
- b) garmonik uslubi
- s) aralash uslubi
- * d) kanon uslubi

82. Xor jamoasida o'quv-tarbiya ishlari nimalarga bog'liq?

- a) doimiy ravishda musiqa savodini olib borish, notalar yordamida kuylashni o'rganish, interval va akkordlarni to'g'ri kuylashga erishish
- b) alteratsiya va dinamik belgilari, o'lchovlarni tushuntirish
- s) major va minor tonaliklarida kuylash
- * d) hamma javoblar to'g'ri

i

83. Xorga ton berishda qanday uchtovushlikdan foydalaniladi?

- * a) tonik uchtovushligidan
- b) subdominanta uchtovushligidan
- s) dominanta uchtovushligidan
- d) kvartsektakkord uchtovushligidan

84. Xor necha turga bo'linadi?

- a) 4
- * b) 2
- s) 3
- d) 5

85. Yaxlit-bir jinsli xor:

- a) soprano, alt, tenor, bas
- b) erkaklar va ayollar xori
- s) bolalar va kattalar xori
- * d) ayollar, erkaklar, bolalar xori

86. Aralash xor:

- a) ayollar xori
- b) ayollar, erkaklar, bolalar xori
- * s) soprano, alt, tenor, bas
- d) erkaklar xori

87. To'liqsiz aralash xorning tarkibi:

- a) soprano, alt, tenor; soprano, alt, bas
- b) tenor, bas, soprano; tenor, bas, alt

- s) soprano, alt, tenor, bas
- * d) a va b javoblar to'g'ri

88. Aralash xorning umumiy diapozoni:

- * a) katta oktava Mi, Fa va ikkinchi oktava Si uchinchi oktava Do
- b) katta oktava Mi, Fa va ikkinchi oktava Mi, Fa
- s) kichik oktava Do, Re va ikkinchi oktava Lya, Si
- d) birinchi oktava Do, Re va ikkinchi oktava Si uchinchi oktava Do

89. Soprano partiyasining umumiy diapozoni:

- a) kichik oktava Fa, Sol va ikkinchi oktava Mi, Fa
- * b) birinchi oktava Do, Re va ikkinchi oktava Si uchinchi oktava Do
- s) kichik oktava Do, Re va birinchi oktava Si ikkinchi oktava Do
- d) birinchi oktava Sol, Lyajva ikkinchi oktava Sol, Lya

90. Alt partiyasining umumiy diapozoni:

- a) kichik oktava Do, Re va ikkinchi oktava Lya, Si
- b) birinchi oktava Sol, Lya va ikkinchi oktava Sol, Lya
- s) birinchi oktava Do, Re va ikkinchi oktava Mi, Fa
- * d) kichik oktava Fa, Sol va ikkinchi oktava Mi, Fa

91. Tenor partiyasining umumiy diapozoni:

- a) birinchi oktava Do, Re va ikkinchi oktava Si uchinchi oktava Do
- b) kichik oktava Fa, Sol va ikkinchi oktava Mi, Fa
- * s) kichik oktava Do, Re va birinchi oktava Si ikkinchi oktava Do d) kichik oktava Fa, Sol va ikkinchi oktava Lya, Si

92. Bas partiyasining umumiy diapozoni:

- a) birinchi oktava Do, Re va ikkinchi oktava Do, Re
- b) kichik oktava Do, Re va ikkinchi oktava Lya, Si
- s) katta oktava Mi, Fa va kichik oktava Mi, Fa
- * d) katta oktava Mi, Fa va birinchi oktava Mi, Fa

93. Kichik tarkibli xorlar son jihatidan nechta bo'ladi?

- * a) 16 tadan 24 tagacha
- b) 20 tadan 35 tagacha
- s) 20 tadan 40 tagacha
- d) 50 tadan 60 tagacha

94. O'rta tarkibli xorlar son jihatidan nechta bo'ladi?

- a) 50 tadan 70 tagacha
- b) 12 tadan 16 tagacha
- * s) 28 tadan 40 tagacha
- d) 16 tadan 20 tagacha

95. Katta tarkibli xorlar son jihatidan nechta bo'ladi?

- a) 60 tadan 90 tagacha
- * b) 52 tadan 80 tagacha va undan ko'p bo'lishi mumkin
- s) 45 tadan 75 tagacha
- d) 80 tadan 120 tagacha

6. Amaliy mashg'ulotlar uchun ishlanmalar

Dirijerlik fani xor jamoalari tashkilotchisi tayyorlashda mutaxassislik fanlaridan biridir. Ushbu fanni o'qitish jarayonida xor jamoalari ijrochiligi tarixi, tor asarlari va o'zbek milliy merosidan o'rin olgan asarlar bilan bir qatorda bastakor liamda kompozitorlar yaratgan asarlar, qo'shiq aytish jarayonida gavdani tik holda utish, hatto o'tirib ijro qilgandagi holatlar, to'g'ri nafas olish, uni to'g'ri sarflash ^o'l-yo'riqlari, ijrodagi nafas olish bilan jismoniy nafas olishning farqi ham chuqur D'rgatiladi.

Qo'shiq aytish davomida artikulyatsiya apparatining ahamiyat nechogii katta jkanligi ma'lum. Shu sababli uning erkin ishlatilishi, unli va undosh tovushlarning ;o'g'ri talaffuz etilishi muhim ahdmiyatga ega.

Ijroning chiroyli va eshituvchiga yetib borishida Yuqorida aytib o'tilganlar bilan Dirga asarning mazmun mohiyatini chuqur anglab yetish ham muhimdir. Shunga co'ra, har bir tanlab olingan asarni mazmuni chuqur tahlil etiladi.

Nafas olish o'rinlarini (frazalarini) aniqlash ham bulardan mustasno emas. SHunday ekan to'g'ri nafasdan foydalanish va o'z o'rnida nafas olish, ayniqsa so'z)o'g'inlarini bo'lmagan holda nafas olish maqsadga muvofiq.

7. Tarqatma materiallar

" Dirijerlik " fanidan amaliy mashg'ulotlar davomida yuqorida keltirilgan ?archa asarlarning nota matnlari tarqatma material hisoblanadi hamda)evosita mashg'ulot davomida foydalaniladi.

O'zbekiston - vatanim manim

J.Jabborov she'ri
D.Omonullayeva musiqasi

Moderato con moto

Qo'-shiq-lar-da va-tan ma'-no-si Qo'-shiq-lar-da xal-qim sa-do-si

Va-tan ku-yin yang-rat-sa dil-lar yang-rar yurt-ning ye-ru sa-mo-si

Va-tan ku-yin yang-rat-sa dil-lar yang-rar yurt-ning ye-ru sa-mo-si qo'-

Naqorat

-shiq qal - bim cha-ma-nim ma-nim qo'-shiq fax-rim jon-ta-nim ma-nim Di

f

-yor bo'y - lab yang-rar bir qo'-shiq O'z-be - kis-ton Va-ta-nim ma-

f

1. -nim! 2. -nim!

-nim! O'z-be - kis-ton Va-ta-nim ma - nim!

ff

8va

8va

Qo‘shiqlarda Vatan ma’nosi,
Qo‘shiqlarda xalqim sadosi.
Vatan kuyin yangratsa dillar
Yangrar yurtning yeru-samosi.

Naqorat:

Qo‘shiq qalbim, chamanim manim,
Qo‘shiq fahrim, jontanim manim.
Diyor bo‘ylab yangrar bir qo‘shiq,
O‘zbekiston Vatanim manim.

Vatan ona, biz unda farzand,
Bir chinorning barglari monand.
Dildan dilga yol olur qo‘shiq,
Ko‘ngillarni etgaydir payvand.

Vatan oltin belanchagimiz,
Biz Vatanning kelajagimiz,
Vatan agar bYuuk bog‘ bo‘lsa,
Bizlarning uning gul chechagimiz.

O'zbekiston - ona, onajon!

A.Ko'chimov she'ri
A.Mansurov musiqasi

Moderato

The musical score is written for piano and voice. It begins with a piano introduction in D major, 4/4 time, marked 'Moderato'. The piano part features a rhythmic pattern of eighth and sixteenth notes in the right hand, and a simple bass line in the left hand. The vocal melody enters in the third measure. The lyrics are in Uzbek and Russian. The score includes dynamic markings such as *f*, *ff*, and *mf*. There are also performance instructions like 'tr' (trill) and '8^{va}' (octave). The piece concludes with a final piano accompaniment.

f

8^{va}

ff

(8)

mf

tr

8^{va}

0 - na - yur - tim go' -

zal bir cha - man

Shu cha-man - da men gul - g'un - cha - man.

Gul - la - ri - ga o - shiq bul - bul - lar,

Men say - ro - qi sho'x

bul - bul - cha - man.

Naqorat:
Biz ya - rat - gan mo' - ji - za - lar - ga

Ha - li ko'p - lar

8^{vb}.....

qo - lish - gay hay - ron...

Yuk-sal - gay - san qu - yosh - ga qa - dar

O'z - be - kis - ton - o - na, o - na - jon,

O'z - be - kis - ton -

o - na, o - na - jon, o...

O'z - be - kis - ton - o - na, o - na - jon!

O'z - be - kis - ton - o - na, o - na - jon,

O'z - be - kis - ton -

o - na, o - na - jon!

(4 marta qaytariladi: 1 - va 2 - marta yakkaxonlar, 3 - va 4 - marta chapak bilan hamma)

gul-g'un - cha - man, gul-g'un - cha Bul- bul - cha - man,

8^{vb}

bul - bul - cha...

ff

tr

hey!

tr

Qiz: Ona Yurtim go‘zal bir chaman,
 Shu chamanda men bir gul g‘unchaman.
 Bola: Gullaringga oshiq bulbullar,
 Men sayroqi sho‘x bulbulchaman.
 Qiz: Chinor kabi viqorga to‘lib,
 YUksalmoqda kundan kun o‘lkam.
 Bola: Shu Vatanga munosib bo‘lib,
 O‘qiyapman, o‘syapman men ham.

Naqorat:

Hamma: Biz yaratgan mo‘jizalarga,
 Hali qo‘plab qolishgan hayron.
 YUksalgansan quyoshga qadar,
 O‘zbekiston – ona, onajon!

Qiz: Quchoq ochdi Yurtingga olam,
 Bola: U bag‘riga bosdi jahonni.
 Qiz: Ko‘z-ko‘z etib endi dunyoga,
 Bola: Ko‘rsatamiz yashnar bo‘stonni
 Qiz: Ona Yurtim go‘zal bir chaman,
 Shu chamanda men bir gul g‘unchaman.
 Bola: Gullaringga oshiq bulbullar,
 Men sayroqi sho‘x bulbulchaman.

Naqorat:

Hamma: Biz yaratgan mo‘jizalarga,
Hali qo‘plab qolishgan hayron.
YUksalgansan quyoshga qadar,
O‘zbekiston – ona, onajon!

O'tkir Rashid so'zi
Hamid Raximov musiqasi

Diyorim o'lkam

Sh. Yormatov yoshlar
xoriga moslashtirgan

Allegro moderato

The musical score is written for a voice and piano ensemble. It is in the key of D major (indicated by two sharps) and 2/4 time. The tempo is marked 'Allegro moderato'. The score consists of three systems of staves. The first system shows the vocal melody and piano accompaniment. The second system continues the piano accompaniment. The third system includes the vocal melody with lyrics and the piano accompaniment. The lyrics are 'Meh-rim sen - ga yor'.

